



UO•K:323:070.431

Habibullo RAJABOV,
DSc, Tashkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: rhabibullo@mail.ru

F.f.d O' Tilovov taqrizi asosida

THE EVOLUTION AND FUTURE OF INFORMATION WARFARE

Annotation

The article analyzes the historical development, current state, and future prospects of information warfare. It examines the evolutionary stages of information warfare from traditional propaganda to modern digital technologies. Other means of contemporary information warfare, such as fake news, manipulative actions in social networks, and cyber attacks, are highlighted. **Key words:** Information warfare, cybersecurity, fake news, social networks, digital diplomacy, media literacy, geopolitical competition, national security.

ЭВОЛЮЦИЯ И БУДУЩЕЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ВОЙН

Аннотация

В статье анализируется историческое развитие, текущее состояние и будущие перспективы информационных войн. Рассматриваются эволюционные этапы информационных войн от традиционной пропаганды до современных цифровых технологий. Показаны другие средства современных информационных войн, такие как фейковые новости, манипулятивные действия в социальных сетях и кибератаки.

Ключевые слова: Информационные войны, кибербезопасность, фейковые новости, социальные сети, цифровая дипломатия, медиаграмотность, геополитическая конкуренция, национальная безопасность.

AXBOROT URUHLARINING EVOLYUTSIYASI VA KELAJAGI

Annotatsiya

Maqolada axborot urushlarining tarixiy rivojlanishi, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qiladi. Axborot urushlarining an'anaviy targ'ibotdan to zamonaviy raqamli texnologiyalargacha bo'lgan tadrijiy bosqichlari ko'rib chiqiladi. Soxta xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ harakatlar va kiber hujumlar kabi hozirgi zamon axborot urushlarining boshqa vositalari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot urushlari, kiber xavfsizlik, soxta xabarlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli diplomatiya, media savodxonlik, geosiyosiy raqobat, milliy xavfsizlik.

Kirish. Jahonda texnik va texnologik taraqqiyotning kuchayib borishi natijasida urushlarning salmog'i, ta'sir ko'lamini ham ortib bormoqda. Dushmanga ko'proq zarar yetkazish, talofotning yuqori darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida zamonaviy qurollardan foydalanish g'alaba qozonishning birlamchi vositasi sifatida qaralmoqda. Tajribadan ma'lumki, bir muddat urushda ishtirok etgan davlat o'zining katta resurslarini yo'qotadi. Bunday resurslar sirasiga eng avvalo, inson, iqtisodiy va harbiy resurslarni keltirish mumkin. Shu sababdan, yo'qotishlarni imkon darajasida minimallashtirish, kam mablag' sarflab ko'proq natijalarga erishish, g'alaba qozonishning turli yo'llari va usullarini izlashga bo'lgan urinishlar amalda o'z natijasini bermoqda. Aytish kerakki, dunyoda barcha vositalar zamonaviylashib borgani sayin, urushda g'alaba qozonishga yordam beruvchi yangi imkoniyatlar ham yaratib kelinmoqda. Bunday yangi imkoniyatlar sirasiga kiruvchi "axborot urushlari" bugungi zamonaviy qarama-qarshiliklarning tarkibiy qismiga aylandi.

Axborot urushi deganda muayyan raqibni yengish uchun moddiy, harbiy, siyosiy yoki mafkuraviy sohalarida axborot subyektlari tomonidan bir-biriga ochiq yoki yashirin, maqsadli axborot ta'siriga aytiladi. "Axborot urushi" tushunchasining paydo bo'lish tarixi ham o'tgan asrga borib taqaladi. Ba'zi manbalarda mazkur tushuncha o'tgan asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilganligi qayd etilsa, ayrim

mualliflar "axborot urushi" termini XX asrning 70 yillarida tilga olingan deb hisoblashadi.

"Axborot urushlari" atamasi ham yangi dunyoning geosiyosiy raqobat sharoitida urushning muhim vositasi sifatida ilmiy manbalarda qayd etilmoqda. Jahonda kechayotgan voqealar rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin yillarda axborot urushlari, gibrid urushlar, axborot mafkuraviy urushlar geosiyosiy raqobat kuchayib borishi sharoitida an'anaviy qurolli mojarolarning o'rnini egallaydi. Buni o'z vaqtida anglab yetgan mamlakatlar o'zining axborot-texnik va axborot mafkuraviy imkoniyatlarini mustahkamlashga doir huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilashgan. Buni ayrim rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rib chiqishni lozim topamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A. Solovyevning keltirishicha, "AQSH Prezidentining 1999 yil 30 yanvardagi PDD-68 qaroriga muvofiq, Markaziy razvedka boshqarmasi tarkibida yangi tuzilma - International Public Information Group (IPG)"[1] Xalqaro jamoatchilik axborot guruhi tashkil etilgan bo'lib, u razvedka ma'lumotlaridan foydalanish uchun mo'ljallangan. Qaror matnida xorijiy davlatlar rahbarlari, rasmiy shaxslari va boshqa alohida e'tibordagi fuqarolarining his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, fikrlashiga ta'sir o'tkazishga doir tavsiyalar berilgan. Bugungi kunda AQSH axborot urushlari yo'nalishida raqobatbardoshlik muhitini to'laqonli yaratib ulgurgan. Sohani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish,

axborotning texnik resurslaridan yuqori darajada foydalanishda AQSH dunyoda yetakchi mamlakat hisoblanadi. Raqamlarga murojaat qilishning o'zi umumiy xulosalar qilish imkonini beradi. "Global Security.org veb-saytida taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2004 yil dekabr oyining oxiriga kelib, Yerga yaqin orbitada 138 ta Amerika, 61 ta Rossiya, 10 ta Xitoy va 12 ta Yevropa harbiy sun'iy yo'ldoshlari bo'lgan"[1].

"Arab bahori" deb nomlangan Shimoliy Afrikaning bir qator (Misr, Tunis, Liviya) davlatlarida 2011 yil bahorida sodir bo'lgan davlat to'ntarishlarida axborot urushlari sharoitida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynagan ma'lum. Fuqarolarda amaldagi hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otishda internetning ommaviy ta'sir imkoniyatlari sinovdan o'tkazildi. Natija ma'lum bo'lgach "Oq uy veb-saytida "T e U. S. International Strategy for Cyberspace" ya'ni AQSH diplomatiyasining maxsus tarmoq texnologiyalari yordamida axborot makonini boshqarish nomli hujjat e'lon qilindi"[2]. Ushbu hujjatga ko'ra AQShning maxsus tarmoq texnologiyalari yordamida global axborot muhitini boshqarish bo'yicha mamlakat diplomatiyasining asosiy harakat yo'nalishlarini belgilab beradi. Axborot urushlari mavjudligi va kuchayib borishi sharoitida axborotni boshqarishning muhim elementi bu Internetdir. "2011-yil 18-mayda AQSH Davlat kotibi X.Klinton "Internet erkinligi biz uchun juda muhim ustuvor vazifadir. Biz shaxsiy daxlsizlikni yaxshiroq himoya qilish, onlayn va oflayn rejimda yig'ilish va boshqa tadbirlar o'tkazishning asosiy erkinliklarini ta'minlash uchun birgalikda ishlashni istaymiz", deya ta'kidlagan"[2].

Yevropada o'z qadriyatlarini, an'analarini, harbiy va informatsion qudratini muntazam oshirib borayotgan Fransiya o'zining erishayotgan natijalarini xorijiy mamlakatlar bilan solishtirish asnosida axborot qudratini mustahkamlab bormoqda. O'tgan asr oxirlarida mamlakat hukumati tomonidan asos solingan elektron urushlarni tashkil etish va olib borish brigadasi bunga misol sifatida keltirish mumkin. "DRM (Direction du Renseignement Militaire) turli harbiy qismlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun razvedka va elektron urush brigadasi"[2] tashqi ma'lumotlarni qabul qilish, umumlashtirish, qayta ishlash va hukumatning tegishli idoralariga taqdim qilish bilan shug'ullanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirilgan ikki mamlakatning axborot urushlari ortib borishi sharoitida milliy axborot resurslarini kuchaytirishga e'tibor qaratishi, mazkur mamlakatlarni dunyoda eng qimmatbaho resurs sifatida e'tirof etilayotgan axborotga egalik qilish va uni boshqarish imkoniyatini oshiradi. Mutaxassislarining qayd etishiga ko'ra, dunyo mamlakatlari axborot urushlari fonida ikki guruhga ajralib ulguragan. Bular, axborotni sotuvchi va sotib oluvchi davlatlardir. Zero, E.To'ffler ta'kidlaganidek, "...ko'proq axborot, ma'lumotlar va bilimlar milliy chegaralar orqali oqib o'tayotganligi sababli, telekommunikatsiya tizimlari o'rtasidagi axborot urushi operatsion tizimlar o'rtasidagi urushdan ko'ra ko'proq siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi"[3]. Masalaning o'ziga xos tomoni shundaki, telekommunikatsiya tizimlari rivojlangan davlatlar axborot urushlari sharoitida ikki karra ustunlikka ega bo'ladi. Birinchisi, axborotni o'z manfaatlariga moslashtirish bo'lsa, ikkinchisi uni o'zi istagan narxda va mazmunda sotish imkonining mavjudligidir. Rastorguyev ta'biri bilan aytganda, "Bugungi axborot g'alabalari asosan axborot texnologiyalariga emas, balki avvalgi barcha urushlar singari alohida "axborot manbalari"ni sotib olish va sotishga asoslangan"[4].

Mazkur jarayonda axborotni qimmatbaho resurs sifatida tayyorlash va sotishga ixtisoslashgan davlatlarning ustunligini ortiqcha izohlashga hojat qolmaydi. Axborot makonining turli ma'lumotlar bilan to'lib borishi ushbu makonda sodir bo'layotgan jarayonlarni nazorat qilish va

boshqarish strategik ahamiyat kasb etib boradi. Kerakli axborotni ko'paytirish, o'zi uchun keraksiz deb hisoblangan axborotni esa yo'q qilish, neytrallashtirish esa tabiiy jarayon sifatida qabul qilinadi.

Aksariyat mualliflar axborotni hujum qilish quroli sifatidagi rolini e'tirof etishadi. Mualliflar D.S. Chereshekin, G.L. Smolyan, V.N. Sigichko axborotning hujumga qaratilgan texnik vositalarini quyidagicha izohlashgan:

- "kompyuter viruslari;
- mantiqiy bombalar (dasturiy ta'minot vositalari);
- telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini, davlat va harbiy boshqaruv kanallarida axborotni qalbakilashtirishni bostirish vositalari;
- test dasturlarini neytrallashtirish vositalari;
- obyektning dasturiy ta'minotiga maqsadli kiritilgan turli xil xatoliklar"[5].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rsatilgan vositalar axborot urushi sharoitida kiberxurujlarning kuch-qudratini namoyish qilish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi ixtiloflarda, xakerlar guruhining Rossiyaga qaratilgan kiber imkoniyatlarini ochiq ko'rsatib berdi. "Anonymous" xakerlar guruhi ochiqchasiga Rossiya hukumatiga qarshi "kiber urush" boshlanganini e'lon qilib, mamlakatning xalqaro maydonda axborot tarqatuvchi nufuzli "Russia Today" kanali veb-saytini buzib kirish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oldi. Shuningdek, "2022 yil 17 mart kuni xakerlar Rossiya va Belarus hukumatlari, davlat ommaviy axborot vositalari, banklar va boshqa kompaniyalarning 2500 dan ortiq veb-saytlarini buzib kirishganini da'vo qilishdi"[6].

Axborot urushlari asosan geosiyosiy raqobat natijasida mamlakatlar, siyosiy subyektlar o'rtasida sodir bo'lishi bilan bir qatorda, u o'z-o'zidan mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatga ham yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Axborot qarama-qarshiligida davlatning axborot subyektlari o'z milliy manfaatlarini himoya qila olmasa, nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki, fuqarolarda ham amaldagi hukumatga ishonchsizlikni paydo qiladi. Bu esa, jamiyatda beqarorlik, hukumat imidjining pasayishi, o'z axborot manbalari qolib, tashqi informatsion resurslarga murojaat qilish kabi xavotirli voqealarni keltirib chiqarishi mumkin. O Melnikova "...zamonaviy dunyoda ichki va tashqi siyosat o'rtasida aniq chegaralar mavjud emasligini"[7] ta'kidlaydi. Mazkur fikrdan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatga bo'ladigan har qanday tashqi ta'sir ichki muhitga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlatning ichki muhitidagi omillar tashqi maydonda aks-sado berishi ayni haqiqat.

Axborot urushlarining eng xavfli tomoni fikrimizcha, muayyan subyektlarning o'z qarashlarini to'g'ri va o'zgarmas deya uqtirishi bilan bog'liq. Falsafiy qonuniyatga ko'ra, har qanday qarash, fikr yoki g'oya vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, o'zining aktualligini yo'qotishi tabiiy. Ammo, o'z qarashlarini mutloq haqiqat sifatida ko'rsatayotgan subyektlar, ta'sir guruhlarining xavfi global makonda bartaraf etish zarur bo'lgan birlamchi vazifalardandir.

Bugungi kunda axborot urushlari fonida yetakchilikka da'vogar mamlakatlar tomonidan eng ko'p takrorlanayotgan chaqiriqlar, dunyo yetakchiligiga da'vogarlik, xalqaro hamjamiyat xavfsizligi uchun mas'ullik, va boshqa da'volarni ko'rsatish mumkin.

O Melnikova muayyan mamlakatga qaratilgan axborot urushining quyidagi ikki ko'rinishini asoslaydi:

- 1) "qurol va texnik vositalar bilan ifodalangan texnologik urush (elektron bombalar, elektron razvedka, xakerlik texnologiyalari, kiberrazvedka va boshqalar);

2) dushmanning axborot maydonini va pirovardida uning ongini qayta dasturlashni maqsad qilgan axborot-psixologik ta'sirdir"[7].

Olima axborot urushining har ikki yo'nalishining bosh maqsadi mamlakatning milliy suvereniteti, hududiy yaxlitligini barbot qilish istagi bilan yuog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, "...axborot urushi keng qamrovli yaxlit strategiya sifatida, hayotning barcha sohalarida: boshqaruv, iqtisodiyot va boshqa sohalarda axborotning tobora ortib borayotgan ahamiyati va qiymati bilan bog'liqdir"[7].

"Axborot urushining predmeti va obyektu inson ongi, uning bilish imkoniyatlaridir"[7]. "Russia Today" axborot agentligi bosh muharriri M. Simonyanning qayd etishiga ko'ra, "...so'nggi yillarda olib borilgan birorta urush yo'qki, u kuchli kuchli artilleriya yordamisiz, televideniye, radio, gazeta va onlayn manbalar tomonidan aniq bombardimon qilinmasdan boshlangani yo'q"[8]. Shu jihatdan, siyosiy muloqotda qo'llaniladigan axborot ta'sirining zamonaviy usullari, shakllari va vositalarining umumiy ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish axborot urushida eng avvalo, yengilmaslikni ta'minlovchi omildir.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan dalillar, tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari, raqamlar, manbalarning umumiy ma'lumotlaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ilgari surish zarurati paydo bo'lmoqda:

Birinchiidan, geosiyosiy raqobatning kuchayib borishi sharoitida axborot urushlarining ta'sir doirasiga tushmaslik, milliy axborot makonini xalqaro tajribadan foydalangan holda rivojlantirish vazifalari strategik ahamiyatga egadir;

Ikkinchiidan, jahonda sodir bo'layotgan axborot urushlarining makon va zamon chegarasidan chiqib ketishi, kommunikatsiya tizimlarining shiddat bilan rivojlanishi sharoitida muayyan davlatning axborot omilidan aniq maqsadlar yo'lida foydalanishi milliy va xalqaro auditoriyada o'z ta'sir doirasini ushlab turishi, barcha yo'nalishlardagi pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi;

Uchinchiidan, global axborot makonida milliy axborot subyektlarining doimiy, aniq maqsadlarni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati natijasida, tashqi siyosiy faoliyatni milliy manfaatlariga mos axborot bilan ta'minlash hamda, mamlakatga tashqaridan bo'ladigan axborot tahdidlarini kuchsizlantirish yoki butunlay bartaraf etishning ijobiy yechimi sifatida xizmat qiladi;

To'rtinchiidan, axborot urushlarining mazmun-mohiyati, zararli oqibatlarini jamiyat a'zolariga yetkazishda milliy kommunikatsiya vositalarining imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularni eng zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash samarali axborot siyosatining ustuvorligiga erishish vositasidir;

Beshinchiidan, axborotni soxtalashtirish, fuqarolar ongini manipulyatsiya qilish, milliy birlikka raxna soluvchi axborot vositalari faoliyatini cheklashga doir qonunchilikni yanada takomillashtirish, mas'ul organlarning o'zaro hamkorligini oshirish milliy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir;

Oltinchiidan, shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavsizligini ta'minlashda "axborotni sotib oluvchi" maqomidan uni "sotuvchi" maqomiga to'laqonli o'tishning moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy manbalarini aniqlash va rivojlantirish vazifasi davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir;

Yettinchiidan, axborot tahdidlari eng ko'p uchrayotgan manbalarni (elektron axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, tele va audiokanallar) aniqlash, bartaraf etish va ularga qarshi tura oladigan milliy axborot "brend"lari soni va sifatini oshirish barqarorlikka erishish kafolatidir;

Sakkizinchiidan, axborot urushlarida ustunlikka ega bo'lgan davlatlar tomonidan eng ko'p qo'llanilayotgan mexanizm va texnologiyalarning texnik va mafkuraviy yo'nalishlarini tadqiq etish, o'zlashtirish hamda milliy xususiyatlarga mos yangi texnologiyalarni yaratishni rag'batlantirish, aniq dasturlar qabul qilish axborot makonida yetakchilik qilishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Соловьёв А.В. Информационная война: понятие, содержание, перспектива. Пространство и время 2/2010. С-75.
2. https://propagandahistory.ru/books/Igor-Panarin_SMI--propaganda-i-informatsionnye-voyny/33.
3. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: Издательство АСТ, 2004. - С. 164.
4. Расторгуев С.П. Информационное оружие и проблема алгоритмической неразрешимости перспективности для информационных самообучающихся систем. <http://evartist.narod.ru/text4/58.htm>.
5. Черешкин Д.С., Смолян Г.Л., Цыгичко В.Н. Реалии информационной войны.//Защита информации. «Конфидент». №4, 1996.
6. <https://www.currenttime.tv/a/hakery-anonymous-vzlom-bank/31771690.html>
7. Мельникова Ольга Андреевна. Информационное обеспечение внешнеполитической деятельности современных государств (политологический анализ). Диссертация на соискание ученой степени кандидата политологических наук. Москва 2020. С-82.
8. Симоньян М.: «Ни одна война в последние годы не начиналась без поддержки прессы» // URL: <https://russian.rt.com>.